

Ishlash uchun patent rasmiylashtirish muddati – 10 ish kuni. Olingan patent asosida muhojirlik qaydi (registratsiya) ni muntazam uzaytirib turmoq zarur.

Patent bo'yicha ishlashga navbatdagi har ish oyi uchun qaydga olingan oldindan soliq to'lovi (НДФЛ) ni to'lashingiz zarur. Birdaniga bir necha oyga to'lab qo'yish mumkin.

2023-yilda Leningrad viloyatida oldindan to'lov oyiga 4400 rublni tashkil etadi.

Patentning amal qilish muddati tugagach, Rossiyadan chiqib ketish zarur yoki patent amal qilishi muddati tugashiga 10 ish kunidan kechiktirmasdan RF IIV MMB muhojirlik masalalari bo'limlarida patentni qayta rasmiylashtirish kerak. Ishlash uchun patentni ko'p martalab qayta rasmiylashtirish mumkin.

To'liq ma'lumot УВМ ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: ning rasmiy saytida [78.mvd.rf/ms](http://78.mvd.rf/ms)

**5. 6 yoshdan katta bo'lgan barcha chet ellik fuqarolar daktiloskopik qayd, fotosuratga tushish va tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart – buning uchun ФГУП «Паспортно-визовый сервис МВД России» ga murojijat etmoq zarur (rasmiy sayt: [pvsmd.ru/branches/47](http://pvsmd.ru/branches/47)), quyidagi manzil bo'yicha: Санкт-Петербург, ул. Красного Текстильщика, д. 10-12, лит. В:**

•RFga kirgan vaqtdan 30 kun davomida – ishga joylashish istagida

• RFGa kirgan vaqtdan 90 kun davomida –90 kundan ortiq muddatda shaxsiy maqsadlarda kelgan holatda.

Fotosuratga tushih va daktiloskopiya bepul o'tish mumkin.

Ijtimoiy xavfli kasalliklar yo'qligi haqidagi tibbiy ko'rik – haq to'lanadigan xizmat, undan har yili o'tmoq zarur: oldingi tibbiy sertifikat amal muddati tugashiga 30 kun kechiktirmasdan.

Ish topganingizdan so'ng, albatta ish beruvchi bilan MEHNAT yo FUQAROLIK-HUQUQIY SHARTNOMASI imzolangan. Ish beruvchi chuningdek unda shartnoma bo'yicha 5 kundan ortiq ishlayotgan har bir xodim uchun MEHNAT DAFTARCHASI rasmiylashtirishi shart.

Ukraina va EOII davlatlari fuqarolari RFda mustaqil shug'ullanish tartibini qo'llashlari mumkin. Mustaqil shug'ullanuvchilar eng oz soliq to'lashadi (jismoniy shaxslar bilan shartnomada 4 %, huquqiy shaxslar bilan shartnomada 6%), xodimlar yollashmaydi, sug'urta to'lovlari to'lashmaydi, o'z faoliyatlari borasida hisobot topshirishmaydi. Mustaqil shug'ullanuvchilar Rossiyaning har bir mintaqasida xizmat ko'rsatishlari mumkin.

Mustaqil shug'ullanish uchun «Мой налог» - [npd.nalog.ru/app/](http://npd.nalog.ru/app/) ilovasida qayddan o'tmoq kerak.

Ishlash uchun patent olganingizdan so'ng 2 oy davomida siz Rossiya IIV Muhojirlik masalalariga oid Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati boshqarmasiga mehnat shartnomasi nusxasini topshirish haqidagi bildiruvi bilan buyurtma xat

orqali jo'natishingiz yoki shartnomani shaxsan olib borishingiz zarur, yo'qsa patentingizni haqiqiy emas, deb topishlari mumkin.

**DIQQAT!** Ishlash uchun patentga muntazam ravishda to'lab turishni ununmang, shuningdek patentning to'langan muddatiga muhojirlik qaydini uzaytirishni ham.

### Foydali muloqotlar

RFning chet ellik fuqarolar uchun davlat xizmatlari - [www.gosuslugi.ru/foreign-citizen](http://www.gosuslugi.ru/foreign-citizen)

Leningrad viloyatining rasmiy mehnat birjasi - [czn47.ru/vacancy](http://czn47.ru/vacancy), 8 800 3504747

Комитет по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области: сайт: [msu.lenobl.ru](http://msu.lenobl.ru), тел.: 8 (812) 539-52-33

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области: сайт: [78.mvd.ru/ms](http://78.mvd.ru/ms) тел. 8 (812) 573-38-25, 8 (812) 573-30-02

Паспортно-визовый сервис МВД России, филиал по Санкт-Петербургу и Ленинградской области: сайт: [pvsmd.ru/branches/47](http://pvsmd.ru/branches/47), тел.: 8 (812) 7036878

Leningrad viloyatining Davlat va munitsipal xizmatlar ko'rsatish ko'p vazifali markazi (МФЦ): sayt: [mfc47.ru](http://mfc47.ru), tel.: 8 (800) 500-00-47

Bepul huquqiy yordam - БФ «ПСП-фонд»: 8 (953) 141-31-09, 8 (812) 337-57-85, [psp-f.org](http://psp-f.org), [vk.com/pspfond](https://vk.com/pspfond)

### Foydali ma'lumotlar

migrantlenobl –mehnat muhojirlari va ularning oilalari uchun sayt «Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области

[migrussia.ru](http://migrussia.ru) – «Миграция и мигранты» (mehnat muhojirlari va ular bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun axborot portali – bir necha tilda moslashish va huquqiy yordamga oid maslahatlar, axborot materiallari, davlat va ijtimoiy tashkilotlarning foydali muloqot yo'llari).

*Буклет «Добро пожаловать в Ленинградскую область!»  
Миграционное законодательство и ответственность за его нарушение. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке)*

*Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»*

*Авторы-составители: Якимов А.Н., Гончарова Д.В.,*

*Редактор: Панич Б.Л.*

*Тираж 2000 экз.*

*Изготовлено в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.*



КОМИТЕТ ПО МЕСТНОМУ  
САМОУПРАВЛЕНИЮ,  
МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫМ  
И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНЫМ  
ОТНОШЕНИЯМ  
ЛЕНИНГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ



migrantlenobl

## Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

# Muhojirlik qonunchiligi va uni buzganlik uchun javobgarlik

### Mehnat muhojirlariga maslahatlar

2023

Agar Siz Leningrad viloyatiga ishlash uchun kelgan bo'lsangiz, barcha muhojirlik hujjatlarini albatta qonunga ko'ra rasmiylashtirishingiz zarur.

**Diqqat!** Vositachilar, brigada boshliqlari ko'pincha qalbaki hujjatlar rasmiylashtirishadi, buning uchun sizni jarimaga tortishlari yo hatto Rossiyaga kirishni taqiqlashlari mumkin.

Haqiqiy, qonuniy hujjatlarni olish uchun faqat davlat tashkilotlariga murojaat etmoq zarur.

Davlat xizmatlari rasmiy portalida qayddan o'tishni tavsiya etamiz <https://www.gosuslugi.ru/foreign-citizen> – u erdan ko'plab hujjatlarni onlayn tarzda olish mumkin.

Rossiyaga kelgandan keyin, siz quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirishingiz zarur:

### **1. Chegaradan o'tish paytida sizga MUHOJIRLIK KARTASINI rasmiylashtirishadi.**

Muhojirlik kartasini faqat chegarada qonuniy rasmiylashtiring. Hech bir holatda qo'ldan muhojirlik kartasi olmang. Qalbaki muhojirlik kartasini taqdim etmoq ma'muriy jarima bilan (7 000 rublgacha) va RF hududidan 5 yil muddatga kirish taqiqi bilan chiqarishga ko'ra jazolanadi. Qalbaki hujjatdan qasddan foydalanish shuningdek jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Muhojirlik kartasi yo'qotilgan holatda, siz 3 ish kuni davomida pasport va kelgan chiptangiz bilan Управления по вопросам миграции МВД РФ ning eng yaqin bo'limiga murojaat etmog'ingiz zarur. Rossiyaga kelgan chiptangiz va naqlyotga minish talonini saqlab qo'yishni maslahat beramiz. Muhojirlik kartasi yo'qolgan holatda ular qonuniy kirganingizni tasdiqlaydi.

### **2. Kirgan kuringiz TIBBIY SUG'URTA POLISI (ДМС)ni rasmiylashtiring. Uni har qanday sug'urta tashkilotida, aeroport, vokzal uo Rossiya pochta bo'limlarida olish mumkin. Polisda tibbiy xizmat ko'rsatish shartlari va sug'urta shirkatining telefonlari ko'rsatiladi.**

Chet ellik fuqarolar uchun ДМС polisini <https://www.gosuslugi.ru/foreign-citizen> rasmiy portali orqali rasmiylashtirish mumkin.

Agar siz EOII a'zo davlatlari (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarosi bo'lsangiz, ishga joylashganingizdan so'ng mehnat shartnomasi asosida majburiy tibbiy sug'urta polisi (OMC) ni bepul rasmiylashtirishingiz mumkin – u sizga RF fuqarolari bilan teng holatda bepul tibbiy yordam olish huquqini beradi.

Sizga ДМС yo OMC polisini bergan sug'urta tashkilotining telefon raqami va nomini albatta eslab oling – uni yo'qotgan taqdiringizda sug'urta shirkatiga murojaat etib, tiklashingiz yoki agar tibbiy yordam talab qilingan holatda u rasmiylashtirilganini tasdiqlatishingiz mumkin. Tibbiy polisning nusxasini yo fotosini tayyorlab oling.

### **3. Leningrad viloyatiga kelganingizdan so'ng o'zingiz yashaydigan manzilga ko'ra MUHOJIRLIK QAYDIDA TURISHINGIZ (REGISTRATSIYA olishingiz) zarur. Chet**

### **ellik fuqaro turar eriga kelgandan so'ng kirish vaqtidan 7 kunga kechiktirmasdan muhojirlik qaydida turishi shart; Tojikiston va O'zbekiston fuqarolari – 15 taqvim kuni, EOII davlatlari (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolari – 30 taqvim kuni, Belarus va Ukraina – 90 taqvim kunida.**

Sizga turar-joy beradigan qabul qiluvchi tomon muhojirlik qaydiga qo'yadi – bular bo'lishi mumkin:

- Leningrad viloyatida doimiy qaydga olingan RF fuqarosi
- Leningrad viloyatida doimiy yashovchi chet el fuqarosi.
- chet el fuqarosi – turar-joy egasi
- huquqiy shaxs: tashkilot-ish beruvchi, mehmonxona.

Muhojirlik qaydida turish uchun Управления по вопросам миграции ГУ МВД РФ по Санкт-Петербургу и Ленинградской областining hududiy bo'limi, davlat xizmati ko'rsatish ko'p vazifali markazi (МФЦ), «Почты России» bo'limiga murojaat etish mumkin.

Sizga quyidagi hujjatlar va ularning nusxalari kerak bo'ladi:

- pasport
- muhojirlik kartasi
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi
- turar-joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat nusxasi (masalan, xususiy mulkka oid shartnomalar).

Muhojirlik qaydida turish uchun zarur:

- Kelganlik haqidagi varaqa-bildiruvning har ikki tomonini to'ldirish. To'ldirilgandan so'ng varaqaning bir qismi УВМ ГУ МВД РФ ga beriladi, ikkinchi qismi chet el fuqarosida qoladi. Har ikki qismda albatta kelish manzili, qabul qiluvchi tomon va chet ellik fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatiladi.
- Chet ellik fuqaro va RF fuqarosi (qabul qiluvchi tomon) pasportlari nusxalari bilan bildiruvni va muhojirlik kartasi nusxasini УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ga jo'natish – «Почты России» orqali, yo shaxsan МФЦ ga yoki УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО bo'limiga ВЕРУЛ.
- Bildiruvning УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО, МФЦ yo «Почты России» xodimlari tomonidan qabul qilinganlik haqida qaydi bog uzma varaqasini olish.

O'zingiz va bolalaringizni onlayn tarzda <https://www.gosuslugi.ru/foreign-citizen> portal yordamida muhojirlik qaydiga qo'yish mumkin – qabul qiluvchi tomonning roziligi tasdig'iga ko'ra. So'ngra qayd haqidagi bildiruvni chop qilib olish zarur.

Vizasiz kirish rejimidagi mamlakatlar fuqarolarini dastlabki muhojirlik qaydiga olish chegaradan o'tgan vaqtdan boshlab 90 kundan ko'p bo'lmagan muddatda rasmiylashtiriladi va bu ishlah huquqini bermaydi. Ishga joylashgandan so'ng muhojirlik qaydini УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО bo'limida mehnat shartnomasi amal qilish muddatiga muvofiq (EOII davlatlari fuqarolari uchun) yoki ishlash uchun to'langan patentga ko'ra muntazam uzaytirish kerak.

### **3. Ozarboyjon, Moldova, Tojikiston, O'zbekiston fuqarolari qonunga ko'ra ishga joylashish uchun ISHLASH UCHUN PATENT olishlari zarur.**

EOII mamlakatlari va Ukraina fuqarolari uchun patent olish talab qilinmaydi. Mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi ular uchun RF hududida vaqtincha bo'lish muddatini uzaytirishga asos bo'ladi.

Patent rasmiylashtirishga hujjatlarni topshirish uchun RUS TILI, RF TARIXI VA QONUNCHILIGINI BILISHGA OID SERTIFIKAT, TIBBIY XULOSA VA giyohvandlik va atrofda odamlarga xavf tug'diradigan yuqumli kasalliklar, shuningdek VICH-infeksiya YOQLIGI BORASIDA SERTIFIKAT olish zarur.

Maxsus test markazlarida test topshirish va rus tili, RF tarixi va qonunchiligi bilish haqida sertifikatni olish mumkin. Markazga murojaat etishdan oldin qaysi bir bank bo'limasi, undan test o'tishga oid kvitantsuya olishingiz va haqini to'lashingizga to'g'ri keladi.

Testdan o'tishni bilish va unga mustaqil tayyorlanish borasida «Российский тестовый консорциум» testcons.ru. sayti yordam beradi.

Agar sizda quyidagilar mavjud bo'lsa, test topshirish shart emas:

- SSSRda o'quv yurtini bitirganlik haqidagi diplom, 1991-yil 1-sentyabrgacha olingan.
- MDH mamlakatlarining hamma mamlakatida rus tili kurslari o'qitilgan o'quv yurtini bitirganlikka oid diplom, uning notarial tasdiqlangan rus tilidagi tarjimai va diplomning rossiya ta'lim standartlariga muvofiqligiga oid guvohnoma.

Tibbiy tekshirish maxsus tibbiyot muassasasida o'tkaziladi. Tibbiy komissiyadan o'tish –pullik xizmat.

Maishiy xizman va umumovqatlanish sohalari (kafe, bolalar bog'chalari, mehmonxonalar, maktab va hokazo)da ishlash uchun shuningdek TIBBIY DAFARCHA rasmiylashtirish zarur. Tibbiy daftarchani tibbiy komissiyadan o'tilgan erda pul to'lab, rasmiylashtirish mumkin.

Barcha zarur ma'lumotnoma va sertifikatlarni olganingizdan so'ng ISHLASH UCHUN PATENT ni rasmiylashtirishga hujjatlar topshirishingiz zarur – Rossiyaga kirganingizdan keyin 30 kun davomida. Agar bu muddatni buzsangiz - 10000 dan 15000 rublgacha jarima to'lashingizga to'g'ri keladi.

Patentda ko'rsatilgandan boshqa ixtisosda ishlasangiz, jarimaga tortishlari mumkin – 4000 dan 7000 rublgacha.

Leningrad viloyatida olingan ishlash uchun patent Sankt-Peterburgda ishlashga yaramaydi – ular turli mintaqalar!

Yodda tuting: Rossiyada faqat 18 yoshga kirgandan so'ng ishlash va patent olish mumkin!

Leningrad viloyatida patent rasmiylashtirish uchun hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan yagona tashkilot - ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД России pvsmd.ru/branches/47